



INTERPRETATION OF NAVOI'S FIGURE IN FICTION (FROM THE PERSPECTIVE OF OYBEK AND IZZAT SULTAN)

Mushtariy Muxammadiyeva¹

Jizzakh State Pedagogical University

DOI: 10.5281/zenodo.15622597

Article History	Abstract
Received: 10.05.2025 Accepted: 09.06.2025	This article discusses the issue of the artistic interpretation of the figure of Alisher Navoi in Uzbek literature. In particular, the images created in the works of Oybek "Bola Alisher", Mirkarim Osim "Zulmat ichra nur" and Isajon Sultan "Alisher Navoi" based on the poet's childhood, historical events, especially his meeting with Sharafiddin Ali Yazdiy are analyzed. Each writer, relying on historical truth in his work, artistically transformed it with his own creative approach, deeply expressed Navoi's personality, inner world, knowledge and human qualities. The article analyzes the harmony of historical facts and artistic images, the role of the author's aesthetics and ideological views in illuminating the image from a scientific and theoretical perspective.

Keywords: Alisher Navoi, historical image, artistic interpretation, Oybek, Mirkarim Osim, Isajon Sultan, Uzbek literature, Sharafiddin Ali Yazdiy, historical truth, childhood, spiritual world.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master's student of the Uzbek language and literature, Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

NAVOIY SIYMOSI BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI (OYBEK VA IZZAT SULTON NIGOHIDA)

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Alisher Navoiy, tarixiy obraz, badiiy talqin, Oybek, Mirkarim Osim, Isajon Sulton, o'zbek adabiyoti, Sharafiddin Ali Yazdiy, tarixiy haqiqat, bolalik, ruhiy olam

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada o'zbek adabiyotida Alisher Navoiy siymosining badiiy talqini masalasi yoritilgan. Xususan, Oybekning "Bola Alisher", Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur" hamda Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" asarlarida shoirning bolalik davri, tarixiy voqealar, ayniqsa, Sharafiddin Ali Yazdiy bilan bo'lgan uchrashuv asosida yaratilgan obrazlar tahlil qilinadi. Har bir yozuvchi o'z asarida tarixiy haqiqatga suyangan holda, uni o'z ijodiy yondashuvi bilan badiylashtirib, Navoiyning shaxsiyati, ichki dunyosi, bilimdonligi va insoniy fazilatlarini chuqur ifodalagan. Maqolada tarixiy fakt va badiiy tasvir uyg'unligi, obrazni yoritishda muallif estetikasi va g'oyaviy qarashlarining o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan.

Dunyo yaralgandan beri tinimsiz ravishda harakatda, undagi insonlar ham doimo neder maqsadda o'z manzillari tomon harakat qiladilar. Darhaqiqat, kishilar umri davomida ko'p bora safarga o'tlanadilar, ba'zan mulk, ba'zan ruh olamida. Bunday ko'chishlar insonni mashaqqatlar va qiyinchiliklarga chidamli bo'lishga, o'zligini anglashga yordam beradi, yaxshini yomondan ajratishga, pok niyat bilan tavakkal qilishga o'rgatadi. Shu o'rinda ulug' shoir Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida safar haqida bildirilgan fikrlarini eslab o'tmoq joizdir: "Azob va mashaqqat tavoze va adabning negizidir. Safar esa ranj mashaqqatga sababdir. Safar erituvchi va kuydiruvchi qo'radir. U erish-kuyish esa er kishining vujud oltinini toblab xom gildan tozalovchidir". Safarga o'tlangan kishi turli ellarni, dillarni ko'rish, mo'tabar zotlar bilan hamsuhbat, hamnafas bo'lish imkoniga ega bo'ladi. "Safar – ayriliqqa uchraganlarni maqsadiga yetkazuvchi ... kishilarni olam ajoyibotlaridan bahramand qiluvchi, g'aroyibotlar dunyosidan xabardor qiluvchidir. Aziz kishilarning mozorlarini ziyorat qilish fayziga musharraf va mukarram bo'lmoq ham safardan, fayzli, ulug' zotlar xizmatida izzat va hurmat topmoq ham safardan..."². Haqiqatan, tarixga nazar solsak, ko'plab insonlar o'z murodlariga safar chog'i erishganlar yoki taqdir tasodifi ham sabab unutilmas umrlik xotirotlarga ega bo'lganlar.

Mir Alisher Navoiy ham safar chog'i xuddi shunday uchrashuvlardan biriga musharraf bo'ladi. Taqdir shamoli G'iyosiddin Bahodir oilasini Yazd cho'liga eltganda ikki buyuk daho – biri Temur tarixini yozgan buyuk tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiy, yana biri turkiy she'riyat bo'stoni bo'lajak shoiri Navoiyning suhbatdosh bo'lishiga imkon yaratdi. Ulug' shoir o'zining "Majolis un-nafois" asarida bu voqeani quyidagicha xotirlaydi: "Ittifoqo manzil alarning xonaqohi eshigida voqe erdi. Tong otqonda, andoqki, o'yun atfol da'bi

²Mahbub ul-qulub. Alisher Navoiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 130 b.

bo'lur, ul jamoatning atfoli ul xonaqohga o'ynag'ali kirdilar va faqir ham alar bila erdim, taxminan olti yo'shimda bo'lg'ay erdim. Mavlono bir rahbada o'lturub erdim. Tushgan jamoatning kayfiyatini ma'lum qilmoq uchun atfoldin birini tiladilar. Faqir alar sori borurg'a muvaffaq bo'ldim. Har nekim so'rdilar, javob ayttim. Tabassum qilib, tahsin qildilar. Dag'i so'rdilarkim; "Maktabg'a borurmusen?" Dedimki: "Borurmen". Dedilarkim; "Ne yergacha o'qubsen?" Dedim: "Taborak surasig'acha". Dedilarkim: "Bu jamoat atfoldin biz tilaganda sen kelib, biz bila oshno bo'ldung, sening uchun fotiha o'quli", deb o'z fothalarig'a musharraf qildilar. Va hamul zamon faqirning volidi va ul xiyl ulug'lari kelib Mavlono xizmatida anvoi niyozmandlig'lar qilg'onidan so'ngra faqirg'a andoq shuur hosil bo'ldi, angakim, ne kishi erkondurlar"³.

Safarda yuz bergan bu kabi tasodiflar vaqtlar o'tib ham unutilmaydi, balki har eslanganda kishida ajib holat, mamnunlikmi yoki faxr tuyg'ulari kuzatiladi. Hazrat Navoiy ham bolaligidagi bu ko'rishuvni yillar davomida unutmaydi. Navoiy Yazdiy bilan bo'lgan bu uchrashuvga va bu olimning bildirgan tilaklariga shunchalik katta ahamiyat berar ediki, keyinroq(umrining oxirida) yozgan "Nasoyim ul-muhabbat" ("Muhabbat shabbodalari") asarida bu uchrashuvni yana bir qayta esga oladi: "Mavlono Sharafiddin Yazdiy –... donishmand va sohibkamol kishi erdi. O'z olamida adili va naziri yo'q erdi... Mavlono o'z zamonasi salotini qoshida mukarram edi va Taftda xonaqoh va shogirdlari va muridlari bor edi. Bu haqir sig'ari sinda ul buq'ada alar xizmatlarig'a musharraf bo'ldum, mening boramda fothalar o'qudilar".⁴

Mazkur tarixiy voqeadan o'z o'rnida ijodkorlar adabiy asar syujetida foydalanar ekan, albatta, tarixiy fakt hisoblanmish bu uchrashuv yozuvchilar tomonidan sayqallanadi, badiiylashtiriladi. "Tarixiy mavzudagi asarlar poetikasidagi muhim hodisalardan biri tarixiy fakt va uning badiiy talqini bilan bog'liq. Ayni mana shu talqinlar adabiy qahramon sajiyasining umumiy bahosiga ta'sir o'tkazadi."⁵ Ijodkor tarixiy siymoni obraz sifatida shakllantirar ekan, uning ichki olami : fe'l- atvori, o'y- xayollari, orzu-maqsadlarini o'quvchilarga tanitishga harakat qiladi hamda buni amalga oshirishda har bir adib o'z tasavvuridan, dunyoqarashidan kelib chiqib tasvirlaydi.

Xususan, Mirkarim Osimning Navoiy hayot yo'li aks etgan "Zulmat ichra nur" qissasida ham ayni shu voqea qalamga olinsa-da, parchani o'qir ekansiz, yozuvchi Navoiyning bolaligidanoq zehni o'tkir, farosatli, hozirjavob hamda kirishuvchan ekanligiga urg'u berayotganligining guvohi bo'lasiz. Navoiy oilasi Taft shahriga kelib tushgandan so'ng Alisher bolalarga qo'shib karvonsaroy yaqinidagi xonaqohda o'ynamoqchi, birdan sho'x Alisher xonaqohdagi quduq charxini aylantirishni o'rtoqlariga taklif qilib qoldi. Ammo xonaqoh chekkasida o'tirgan keksa kishidan bolalar cho'chib turganda Alisher u kishining ko'rinishidan yuvoshgina insonligini aytib ularni o'yinga ko'ndiradi. Tarixiy voqeaga asosan

³ Alisher Navoiy "Majolis un- nafa'is"

⁴ Izzat Sulton Navoiyning qalb daftari: Buyuk shoirning hayoti bilan ijodi o'zining va zamondoshlarining tasvirida. - T.: G'afur G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. - 64 b.

⁵ Ashurova Gulbahor Nurullayevna. MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK ADABIYOTIDA ALISHER NAVOIY OBRAZI/ Toshkent: «Qamar media», 2023. 44 – b.

chol bolalarni o'z yoniga chorlaganda ular orasidan Alisher kelib unga salom beradi. Suhbat davomida Yazdiy qay tomon ketayotganliklarini va ne uchun yo'lga chiqqanliklarini so'raganda Alisher biyron til bilan "Xurosonda urush boshlanib ketdi-ku.Podshohzodalar bir-birlarining kallasini kesmoqda, yurtni talamoqda, mundog' zamonda... Mabodo telba Mironshohning merosxo'rlaridan biri taxtga o'tirsa bormi, naq kallamiz ketadur-a..."⁶ Cholning "Ne sababdin" degan savoliga esa G'iyosiddin Bahodir oilasi Boyqarolarga xizmat qilib kelishi, ular bo'lsa Mironshoh avlodi bilan kelishmasliklarini bolalarcha soddalik bilan aytib beradi. Aslida bu gaplarni bola otasi va tog'alari bilan suhbatda eshitgan, ammo bola zehni bilan anglaganki, bu ular oilasi tinchligi uchun xatarli, shu sababdan ko'chishga qaror berilganligini ham o'zicha fahmlagan. Uchrashuv oxirida esa Yazdiy bolani duo qilayotganda Alisherning otasi boshqa kishilar bilan kirib kelib mashhur tarixchi bilan alohida ehtirom bilan ko'rishadi. "Alisher hozirgina o'zi bilan gaplashib turgan chol ulug' biro dam ekanini payqab, xonaqohdan chiqib qochdi"⁷

Yozuvchi bu sahnani badiiy talqinda biroz o'zgartirgan bo'lsa-da, bu o'zgarishlar orqali kichik Alisherning ruhiy olami, o'ziga xos mulohazasi va hayotga bo'lgan nozik munosabati yorqin ifodalanadi. Ayniqsa, u ulug' bir zot oldida o'zini kichik his qilib, beixtiyor chekinib chiqib ketishi — bu holat Alisherning ichki kamtarligi, hurmat-ehtiromga asoslangan tarbiyasi, shuningdek, bolalarcha tabiiy hayajonini namoyon etadi. Tarixiy haqiqatdan badiiy og'ish asarning obrazlar xarakterini chuqurlashtirish, o'quvchida iliq taassurot qoldirish uchun xizmat qilmoqda.

Ayni shu voqea Oybekning "Bola Alisher" qissasidan ham joy olgan bo'lib, xonaqohga kirib qolgan bolalardan "mutolaa ila mashg'ul, tanho o'ltirgan katta sallali, keng oq yaktakli chol" qay yurtdan kelayotganligini so'raydi. "Alisher darhol o'rtoqlariga qarab, hammasining jim qotganini va birortasining javobga og'iz ochmaganini fahmlagach, cholga yaqin borib nazokat ila ta'zim qildi"⁸, so'ngra Hirotdan yo'lga chiqish sababini dona-dona qilib so'zlab berdi. Oybek qissasidagi bu parcha oxirida yozuvchi yosh Alisherni buyuk tarixchi ustoz xizmatiga bel bog'latadi. " - Bo'tam, hovuzdan suv keltiring, - dedi chol, bo'sag'a oldidagi obdastani imo bilan ko'rsatib. Alisher lahzada obdastani to'latib, joyiga qo'yarkan, chol bolaning tetikligi, ko'zlaridagi tuyg'unlik, ko'nglidagi samimiyat mavjidan zavqlangan, quvongan edi"⁹. Yozuvchi bu asarida Alisher Navoiyning yoshlikdan bilimli va tavozeli, fahm-farosatli, kattalar bilan muomala qilish odoblarini yaxshi egallaganligini ta'kidlaydi, yosh bo'lishiga qaramay har qanday vaziyatda ziyraklikni qo'ldan bermaydigan, kattalar xizmatiga doimo shay turadigan, mehnatdan qochmaydigan, ko'plab insoniy xislatlarni shakllantirgan bola sifatida kamol topayotganligiga urg'u beradi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani Navoiy

⁶ Mirkarim Osim. Zulmat ichra nur . – Toshkent: "Read book" nashriyoti, 2024-y. – 14b

⁷ Mirkarim Osim. Zulmat ichra nur . – Toshkent: "Read book" nashriyoti, 2024-y. – 14b

⁸ Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. "Bola Alisher"/qissa va hikoyalar/ "Adabiyotimizning so'nmas yulduzlari" turkumi – T.: "Oltin qalam", 2023. – 75 b.

⁹ Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. "Bola Alisher"/qissa va hikoyalar/ "Adabiyotimizning so'nmas yulduzlari" turkumi – T.: "Oltin qalam", 2023. – 75 b.

obrazini o'ziga xos tarzda tasvir etganligi bilan ajralib turadi. "Adib "Alisher Navoiy" romanida ko'proq mutafakkir shoirning ijodiy-ruhiy olamini taftish etishga harakat qilgan. Ya'ni Isajon Sultonni yozuvchi sifatida Navoiyning aslida kim bo'lgani, uning kechinmalari, ma'naviy dunyosi, o'y-xayollari, armoni, shaxs sifatidagi qadriyatlari, iymoni, axloqi ko'proq qiziqtirgan".¹⁰ Yuqoridagi yozuvchilar qatori Isajon Sulton ham Alisher va Sharafiddin Ali Yazdiy tarixiy uchrashuvini o'z asari bag'riga singdirib yuboradi. "Taft. Bir ajoyib chol" deb nomlangan bu bobda boshqa asarlardagidan farqli o'laroq syujet ancha keng va boyitilgan holda ishlangan. Xususan, " oqtuppi" o'yini bilan mashg'ul bolalar tuppakni bog' ichiga tushirib yuboradi, uni izlab bog'ga kirganlarida esa " hovlini aylanib yurgan oppoq soqolli, hassali qariya" ularni qoshiga chorlaydi. Bolalar tanbeh eshitishdan qo'rqib, qochishga shay turishganda, Alisher dadil borib cholga salom beradi. Chol boladan qay yurtidan ekanligini, ota-onasi hayotligini, maktabga borish- bormasligini so'ragach:

"Ne o'qiydursiz?

– "Balog'at" va "Kalom" o'qiydurmiz.

– Kitoblaringiz nedir?

– "Mutavval", "Hoshiyai tajrid" va "Sharhi faroiz".

– Qur'onda qaysi juzga keldingiz?

– "Taborak"ka.

– "Taborak" emas, "Mulk", – dedi chol.

– "Al-Mone'" ham derlarki, mone' bo'lguvchidir. Yana "Al-Munjiya" deb ham ataydilar, najot berguvchi, qabr azobidan qutqaruvchi. Hatto derlarki, o'qilgani mahal qanot qoqqay, qanoti ila bandani to'sib qolgay".¹¹

Navoiyning o'zi bu voqeani xotirlar ekan, muqaddas kitob mutolaasida "Taborak"ka yetganligini aytadi. Mirkarim Osim asarida ham shu javobni ko'rsak, Oybekda esa "Mulk" surasigacha deya javob beriladi. Isajon Sulton asarida esa go'yo bunga oydinlik kiritiladi. Ya'ni Yazdiy tilidan yuqoridagi izoh beriladi, aslida bu ikki nom ham bitta suraning turli atalishi ekanligi anglashiladi. Suhbat davomida Yazdiy Alisherdan bir sura o'qishini iltimos qilganda, bola :

- "Tabbat"ni o'qisam maylimi?

– "Tabbat" emas, "Masad"dir. Uning ma'nisi pishiq o'rilgan arqondir, – dedi oqsoqol.

– Arabchada "naxl", forschada kafdast deyilguvchi og'ochdan olingan chilvirdir.

– Men anglashingiz oson bo'lishi uchun "Tabbat" dedim, – dedi Alisher, bu so'zi bilan cholni yana zavqlantirib"¹².

Alisherning javobi uning naqadar bilimli va mulohazali ekanligini yaqqol namoyon etadi, jumlaning o'qir ekansiz, ichingizdan beixtiyor tasanno degan iqrar kelaveradi. Bu esa yozuvchining yuksak mahoratidan darak beradiki, shugina qisqa bayon bilan kitobxon ko'z oldida Navoiyning bolaligidan aqli raso, topqir va so'zga chechan bo'lganligini ta'sirli aks ettira olgan.

¹⁰ <https://quronov.uz/sadullo-quronov-alisher-navoiy-romanida-tarixiy-shaxs-konsepsiyasi/>

¹¹ I.Sulton "Alisher Navoiy ".T,Adabiyot nashriyoti,2021-yil,57-bet

¹² I.Sulton "Alisher Navoiy ".T,Adabiyot nashriyoti,2021-yil,57-bet

Ulug' insonlar duosiga erishish uchun biroz bo'lsa-da aziyat chekish talab etiladi, ammo ba'zan taqdir siylasa bunga osonroq erishish mumkin. Isajon Sulton Alisher va Yazdiy uchrashuvi oddiy tasodif emasligini, balki taqdirda Navoiy shu inson suhbatidan bahramand bo'lishi bitilganligini quyidagicha ifodalaydi: "Men kecha Qum shahriga ketmoqchi edim, biroq hech kutilmaganda tuyalarimiz dardga chalinib qoldi, – dedi. – Endi bilsam, bejizemas, mana bu zakovatli o'g'lon bilan ko'rishmog'im uchun ekan. Mosholloh, zakosi ichiga sig'may, to'lib-toshib turibdi".¹³

"Bu sargardonlik va mashaqqatlar bo'lajak shoir uchun asl maktab – hayot maktabi edi"¹⁴. Darhaqiqat, Navoiy o'z safarlari mobaynida hayot maktabida ta'lim oldi, turmush qiyinchiliklarini totib ko'rdi, taqdir inoyati bilan buyuklar duosiga musharraf bo'ldi. Navoiy siymosini so'z qudrati bilan chizmoqchi bo'lgan ijodkorlar esa uning haqiqiy hayot yo'lidan unumli foydalanib, badiiylashtirgan tarzda shoirning mukammal badiiy obrazini yaratganlar va yaratmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mahbub ul-qulub. Alisher Navoiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 172 b.
2. Alisher Navoiy "Majolis un- nafa'is"
3. Izzat Sulton Navoiyning qalb daftari: Buyuk shoirning hayoti bilan ijodi o'zining va zamondoshlarining tasvirida.- T.: G'afur G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.- 376 b.
4. Ashurova Gulbahor Nurullayevna. MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK ADABIYOTIDA ALISHER NAVOIY OBRAZI/ Toshkent: «Qamar media», 2023. 408 – b.
5. Mirkarim Osim. Zulmat ichra nur . – Toshkent: "Read book" nashriyoti, 2024-y. – 192b
6. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. "Bola Alisher"/qissa va hikoyalar/ "Adabiyotimizning so'nmas yulduzlari" turkumi – T.: "Oltin qalam", 2023. – 128 b.
7. I.Sulton "Alisher Navoiy ".T, Adabiyot nashriyoti, 2021-yil, 512-bet
8. <https://quronov.uz/sadullo-quronov-alisher-navoiy-romanida-tarixiy-shaxs-konsepsiyasi/>

¹³ O'sha asar – 58 b

¹⁴ Izzat Sulton Navoiyning qalb daftari: Buyuk shoirning hayoti bilan ijodi o'zining va zamondoshlarining tasvirida.- T.: G'afur G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.- 64 b.